



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No 1



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, yanvar.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

INSON KAPITALINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	52
Dilnoza Ruziqulova Xoliqovna	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLAR BAZASINI BAHOLASH SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH.....	56
Isoqov Zafarjon Zokirjonovich	
INNOVATSION IQTISODIYOTDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XALQARO TAJRIBA	60
Maksumova Umidaxon Sadikjonovna	
ОЛИГОПОЛИЯ И ТЕОРИЯ ИГР	64
Камилова Наргиза Абдукаххоровна, Наимов Самандар Раджабович	
ЦИФРОВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ НА ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОМ ТРАНСПОРТЕ: НОВАЯ ЭРА ЭФФЕКТИВНОСТИ	67
Каракулов Фарход Зайпудинович	
MEVA-SABZAVOTCHILIK MAHSULOTLARINING EKSPORT SALOHİYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINING INNOVATSION YECHIMLARI	72
Ergashev Jamshid Axmadaliyevich	
MOLIYAVIY AKTIVLARNING IQTISODIY MOHIYATI VA TIJORAT BANKLARIDA ULARNING SIFAT MEZONLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	77
Iskandarova Munisa Hasan qizi	
MOLIYAVIY RISKLARNI BOSHQARISHDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASH IMKONIYATLARI	82
Xojiyev Jaxongir Dushabayevich, To'xtayev Kamol Po'latovich	
MARKETING VA BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA TAYYOR KIIYIMLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	87
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
NAMANGAN VILOYATI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA MODERNIZATSIYA JARAYONLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI	93
Odilova Malika Abdushukur qizi	
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	98
Toshtemirov Xojjakbar Qahramon o'g'li	
ТУРИЗМ КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ СТРАНЫ	103
Артикова Шохида Ильясовна	
MINTAQALARDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARI INNOVATSION SALOHİYATINI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	107
Dadamirzayev Muzaffar Xabibullayevich	
THEORETICAL ASPECTS OF SERVICES IN THE CONTEXT OF UZBEKISTAN'S ECONOMIC TRANSFORMATION	114
Umidjon Normurodov, Qodirov Yusufbek Suyunbek ugli	
РАЗВИТИЕ ПРЕДПРИЯТИЙ ОБУВНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ФОРМИРОВАНИЯ МАРКЕТИНГОВЫХ ИННОВАЦИЙ	120
Расулов Нозимжон Набиджонович	
QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING JORIY QILINISHI VA UNI OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI.....	125
Saburov Jumanazar Saliyevich	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI VA ICHKI BOZORNI KENGAYTIRISH IMKONIYATLARI	129
Mayliyeva Sadoqat Safayozovna	
ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ТРАНСПОРТНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В УСТОЙЧИВОМ РАЗВИТИИ УЗБЕКИСТАНА.....	134
Убайдуллаев Худоёр Бахтиёр угли	



MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARI SALOHIYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI	141
Xayitov Rustam Burxonovich	
BARQAROR MOLIALASHTIRISH KONSEPSIYASIGA MUVOFIQ "YASHIL" INVESTITSIYALARNI RIVOJLANTIRISH.....	146
Abduraxmonov Alimardon Sodiq o'g'li	
BANK XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISH.....	151
Dushamov Maxmudjon Maksudbekovich	
HUDUDLARDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI VA ISTIQBOLLARI	159
Ibodova Dilsora Ibodovna	
INVESTITION PORTFELLARNI SHAKLLANTIRISH, BAHOLASH VA BOSHQARISH.....	165
Baymanova Mavlyuda Djurayevna, Abdullaeva Shohista	
KICHIK XIZMATLAR FAOLIYATINI RASMIYLASHTIRISH ORQALI AHOLI BANDLIGI KO'RSATKICHLARINI OSHIRISH.....	170
Xalimbetov Farxad Bagibekovich	
MONOPOLIYAGA QARSHI BOSHQARUV TIZIMINI RIVOJLANTIRISH: XORIJIY TAJRIBA VA MILLIY YONDASHUVLAR.....	173
Akbarov Jasur Ikromjon o'g'li	
СТАТИСТИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ДИНАМИКИ И СЕЗОННОСТИ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	179
Салиходжаева Умида Абдуакбар кизи	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI TALABNI PROGNOZLASHNING CHAKANA MARKETING INNOVATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDAGI ROLI	186
Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi	
TEMIR YO'L YO'LOVCHI TASHISH KORXONALARI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH MODELLARI	200
Eshboyev Ulug'bek Farxodovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIAVIY HISOBOT VA AUDIT METOLOGIYASINI TAKOMILASHTIRISH	205
Zufarova Zilola Raxim qizi	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN RISKLARNI BOSHQARISH MEXANIZMIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILLARI	216
Rahmonqulov Temirbek Eshmatovich	
MULKIY SOLIQLARNING MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI TA'SIRINI BAHOLASH.....	222
Aliyarov Olim Abdug'aparovich	
AVTOMOBIL SANOATIDA MAHSULOT BILAN BOG'LIQ XIZMATLAR TASNIFI	231
Saidov Dilshodbek Razzakovich	
UY-JOY FONDINI SAMARALI TASHKIL QILISH VA TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJIY TAJIRIBALARI.....	236
Otajonov Tohirjon Xo'janazar o'g'li	
TURIZMNI IQTISODIYOTDA TO'G'RIDAN TO'G'RI TA'SIRINI STATISTIK TADQIQOTI.....	241
Jumanova Zilola Tuychiyevna	
RIVOJLANGAN DAVLATLAR BANK EKOTIZIMLARI VA O'ZBEKISTON BANK EKOTIZIMLARINING RIVOJLANISHI VA QIYOSIY TAHLILI	248
X.R. Aliyev	
O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM TIZIMI UCHUN DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA BOSHQARUV METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	254
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	
OROL BO'YI MINTAQASIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI INNOVATSION BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	259
Umarova Xusnora Dilmurod qizi	



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISHCHI KUCHIDAN SAMARALI FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.....	264
Xolmurotov Salimbek Eshbekovich	



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISHCHI KUCHIDAN SAMARALI FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

Xolmuratov Salimbek Eshbekovich

TDIU Mehnat iqtisodiyoti kafedrası dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada ishlab chiqarish jarayonida ishchi kuchidan foydalanishning nazariy asoslari, ishlab chiqarishda ishchi kuchidan foydalanish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalar hamda ularning o'ziga xos xususiyatlarini milliy amaliyotda qo'llash imkoniyatlari yoritib berilgan. Shuningdek, xususiy holda mamlakatimizda aholi bandligi va daromadlarini oshirishga qaratilgan tarkibiy islohotlarni statistik baholash yo'llari ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ishchi kuchi, ishchi kuchiga bo'lgan umumiy talab va taklif, talab va taklifning optimal nisbati, mehnat resurslaridan samarali foydalanish, mehnat bozorining egiluvchanligi.

Abstract. This article examines the theoretical foundations of labor force utilization in the production process, analyzes advanced foreign experiences in the application of labor in production, and highlights their specific features and potential adaptation to national practice. In addition, the study focuses on statistical methods for assessing structural reforms aimed at increasing employment levels and household incomes in the country.

Key words: labor force, overall demand and supply of labor, optimal demand–supply ratio, efficient use of labor resources, labor market flexibility.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические основы использования рабочей силы в производственном процессе, анализируется передовой зарубежный опыт применения труда в производстве и его специфические особенности, а также возможности их адаптации в национальной практике. Кроме того, особое внимание уделено статистическим методам оценки структурных реформ, направленных на повышение уровня занятости и доходов населения в нашей стране.

Ключевые слова: рабочая сила, общий спрос и предложение рабочей силы, оптимальное соотношение спроса и предложения, эффективное использование трудовых ресурсов, гибкость рынка труда.

KIRISH

Ishchi kuchi bozori – mehnatga qobiliyatli aholining ish bilan band bo'lgan va band bo'lmagan qismlari hamda ish beruvchilar o'rtasidagi munosabatlarni, shuningdek, ularning shaxsiy manfaatlarini hisobga oluvchi shartnoma (kontrakt)lar asosida “mehnatga qobiliyatini” xarid qilish va sotishni amalga oshiruvchi, ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif o'rtasidagi nisbatlarni bevosita tartibga soluvchi bozor iqtisodiyotining murakkab, ko'p aspektli, o'suvchi va ochiq ijtimoiy-iqtisodiy tizimidir.

Ishchi kuchi bozori ishchi kuchini iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarga muvofiq ravishda faoliyat turlari va shakllari kesimida taqsimlash hamda qayta taqsimlash vazifasini bajaradi va ishchi kuchiga bo'lgan talab hamda taklifni moslashtiradi. Bundan tashqari, bozorda ishchi kuchining mehnat qilishga bo'lgan potensial layoqati taklif etilishi va uning sotib olinishi sababli, nazariy jihatdan “ishchi kuchi bozori” kategoriyasini qo'llash to'g'ri hisoblanadi. Chunki mehnat ishchi kuchini iste'mol qilish jarayonida paydo bo'ladi va mazkur holat bozorda emas, balki ishlab chiqarish sohasida vujudga keladi.



Ishchi kuchi bozorining ishchi kuchi bilan teng darajada ahamiyatli jihati – ishchi kuchiga bo'lgan talab hisoblanadi. Ishchi kuchiga bo'lgan talab iqtisodiyot sohalari va korxonalardagi mavjud ish joylarida ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojni ifodalaydi. Ishchi kuchiga bo'lgan talab uning iqtisodiyotdagi band ish o'rinlari va bo'sh ish joylari o'rtasidagi nisbatiga bog'liqdir. Ular o'rtasidagi farq shundan iboratki, band ish o'rinlari ishchi kuchi bilan ta'minlangan bo'ladi. Bundan tashqari, loyihaviy ish joylari ham mavjud bo'lib, ular yaqin va uzoq kelajakka mo'ljallangan rejalar asosida vujudga keladi. Mazkur ish joylari ishchi kuchiga bo'lgan qo'shimcha talabning tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Bunday talabni qondirish uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar zarur bo'ladi. Chunki kelajakka mo'ljallangan ish joylarini yaratishda, xoh davlat bo'lsin, xoh tadbirkor, ushbu joylarga mos malakali kadrlarni tanlash uchun oldindan harakat qiladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, tadqiqotda ishchi kuchiga bo'lgan talabni shakllantirishning yo'nalishlari ko'rib chiqilgan (1-jadval).

1-jadval. Ishchi kuchiga bo'lgan talabni shakllantirishning yo'nalishlari¹

№	Yo'nalishlar	Chora-tadbirlar
1.	Mavjud ishchi o'rinlarini saqlab qolish va modernizatsiyalash, yangilarini yaratish hamda ortiqcha va samarasizlarini batamom tugatish	Ushbu tadbirlar, avvalo, iste'mol buyumlari ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasiga mablag' jalb etayotgan korxonalarda amalga oshiriladi.
2.	Yangi ishchi o'rinlarini yaratish maqsadida tadbirkorlikni rivojlantirish	Ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish samaraliroq hisoblanadi. Bunga yangi korxonalar tashkil etish bilan bir qatorda, yirik korxonalar qoshida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining rivojlanishi ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.
3.	Ish haqi to'lanadigan jamoat ishlarini tashkil etish	Ushbu tadbir xorij amaliyotidan kirib kelgan bo'lib, undan yetarli darajada foydalanilmayapti. Vaholanki, O'zbekistonda qadimdan uy-joylar qurish, yangi yerlarga suv chiqarish va yerga ishlov berish kabi ishlar hashar yo'li bilan amalga oshirilgan. Hozirgi paytda esa jamoat ishlarining sanoqli turlaridan foydalanilmoqda.
4.	Ishchi kuchi bandligini ta'minlashda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish	Bugungi kunda respublikamizda xizmat ko'rsatish sohasi tobora keng rivojlanib bormoqda. Ushbu jarayonni jadal rivojlantirish aholining turmush darajasini yuksaltirishga hamda ijtimoiy xizmatlar sohasida raqobat muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mehnat iqtisodiyoti va ishchi kuchidan samarali foydalanish masalalari iqtisodiy fanlarda muhim yo'nalishlardan biri bo'lib, bu borada Q.X. Abdurahmonov va hammualliflarining tadqiqotlari alohida ahamiyat kasb etadi. Mualliflar mehnat resurslarining shakllanishi, taqsimlanishi va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish masalalarini mehnat bozori mexanizmlari bilan uzviy bog'liq holda tahlil qiladilar. Ularning fikricha, ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifning optimal nisbatini ta'minlash iqtisodiy barqarorlikning muhim omili hisoblanadi.

Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologik jihatlarning o'zaro bog'liqligi Abdurahmonov Q.X. tomonidan chuqur asoslab berilgan bo'lib, unda ishchi kuchining ijtimoiy xulq-atvori, bandlik motivatsiyasi va mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi omillar yoritilgan. Ushbu yondashuv ishchi kuchidan samarali foydalanish masalasini faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy jarayon sifatida ham baholash imkonini beradi.

Mintaqalar kesimida ishchi kuchidan foydalanish masalalari Berkinov B.B., Ashurova D.S. va Abdullayev M.K. tadqiqotlarida keng yoritilgan. Mualliflar hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish prognozlarida bandlik darajasi, mehnat resurslari tarkibi va migratsiya jarayonlarining roliga alohida e'tibor qaratadilar. Ularning yondashuviga ko'ra, hududiy tafovutlarni qisqartirishda mehnat resurslaridan oqilona foydalanish muhim strategik vazifa hisoblanadi.

Makroiqtisodiy siyosat va ishchi kuchi bandligi o'rtasidagi bog'liqlik Ishmuxamedov A.E. va hammualliflar tomonidan tahlil qilingan. Tadqiqotlarda iqtisodiy o'sish sur'atlari, investitsion faollik va davlat siyosatining bandlikka ta'siri asoslab beriladi. Ushbu qarashlar ishchi kuchidan samarali foydalanishni makroiqtisodiy barqarorlik bilan bog'lab tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi.

Ishchi kuchidan foydalanish samaradorligini miqdoriy baholashda ekonometrik va matematik modellar muhim ahamiyatga ega. Bu borada Xakimov T.X. hamda Alimov R.X. va hammualliflarning ishlari e'tiborga molik bo'lib, ularda iqtisodiy o'sish va bandlik o'rtasidagi funksional bog'liqlik modellashtirilgan. Ushbu metodologik yondashuv ishchi kuchi bozorida jarayonlarni ilmiy asosda prognozlash imkonini beradi.

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



Xorijiy ilmiy qarashlarda esa K. Hart tomonidan norasmiy bandlik va urban mehnat bozori masalalari tahlil qilingan bo'lib, ushbu yondashuv rivojlanayotgan mamlakatlar sharoitida ishchi kuchidan samarali foydalanish muammolarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Shuningdek, K. Inada tomonidan ishlab chiqilgan ikki sektorli iqtisodiy o'sish modeli ishchi kuchining tarmoqlararo taqsimlanishi va uning iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini tushuntirishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ilmiy tadqiqotda ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi rasmiy statistika organlari, mehnat va bandlikka oid davlat hisobotlari, shuningdek, ochiq e'lon qilingan normativ-huquqiy hujjatlar va ilmiy manbalar asosida yig'ildi. Tadqiqot jarayonida mehnat resurslari, bandlik darajasi, ishchi kuchiga talab va taklif ko'rsatkichlari bo'yicha statistik ma'lumotlar tanlab olindi. Olingan ma'lumotlar dinamik qatorlar, taqqoslash va guruhlash usullari yordamida tahlil qilindi. Shuningdek, ishchi kuchidan foydalanish samaradorligini baholashda SWOT-tahlil va iqtisodiy-matematik yondashuvlardan foydalanildi. Tahlil natijalari asosida ishchi kuchidan samarali foydalanish yo'nalishlari va ularni takomillashtirish imkoniyatlari aniqlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda ishsizlikni kamaytirish hamda foydali mehnatga layoqatli aholini ish bilan ta'minlash bo'yicha quyidagi ilmiy takliflar ishlab chiqildi. Xususan:

- kichik korxonalar rivojlanishini, birinchi navbatda, qishloq xo'jaligi xomashyosini qayta ishlaydigan korxonalarni, xalq iste'moli mollari va qurilish materiallarini mahalliy xomashyodan ishlab chiqarishni rag'batlantirish, shuningdek, xususiy tadbirkorlik sohasini kengaytirish uchun zarur sharoitlar yaratish;
- xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, ayniqsa, qishloq joylarda aholiga taklif etiladigan ijtimoiy-maishiy hamda qurilish xizmatlari turlarini sezilarli darajada kengaytirish hisobiga ishsizlik darajasini kamaytirish;
- oliy ta'lim tizimini yuksaltirish orqali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning kasbiy malakasini oshirish hisobiga ishsizlikni pasaytirish va h.k.

Statistik tadqiqot natijalari ikki yo'nalishda — ish beruvchilarning ishchi kuchiga bo'lgan talabi hamda ishchi kuchi taklifi holati haqidagi yangi statistik axborotlar fondini yaratish imkonini beradi. Ushbu ma'lumotlar viloyat hududlarida ishchi kuchiga bo'lgan talabni oshirish va uning taklifini kamaytirish, aholining ish bilan oqilona bandligini ta'minlash hamda malaka darajasini yuksaltirishga yo'naltirilgan tavsiya va takliflarni ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Ilmiy ishda mamlakatimizda ishchi kuchidan foydalanish holati va o'ziga xos jihatlari SWOT-tahlil usuli asosida yoritilgan (2-jadval).

2-jadval. Ishchi kuchidan foydalanish holatining SWOT-tahlili


Kuchli tomonlari	Kuchsiz tomonlari
Ish bilan bandlik bo'yicha davlat dasturlarining ishlab chiqilganligi	Mehnat unumdorligi darajasining pastligi
Berilayotgan moliyaviy imkoniyatlar	Ishsizlik darajasining yuqoriligi
Tarmoq va korxonalarda ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash hamda eksport qilish imkoniyatlarining yuqoriligi	Investitsion faollikning nisbatan pastligi
Arzon ishchi kuchining mavjudligi	Ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifning nomutanosibligi
Ishchi kuchidan yanada samarali foydalanish imkoniyatlarining mavjudligi	Yuqori malakaga ega ishchi kuchining boshqa hududlarga ketib qolishi
Oliy ma'lumotli aholi salmog'ining ko'pligi	Tarmoq va korxonalarda investitsion loyihalarning kamligi
Innovatsion-intellektual salohiyatni amalga oshirish imkoniyatining mavjudligi	Ko'pgina korxonalarning past rentabelligi
Kuchli tomonlari	Kuchsiz tomonlari
Ish bilan bandlik bo'yicha davlat dasturlarining ishlab chiqilganligi	Mehnat unumdorligi darajasining pastligi
Berilayotgan moliyaviy imkoniyatlar	Ishsizlik darajasining yuqoriligi
Tarmoq va korxonalarda ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash hamda eksport qilish imkoniyatlarining yuqoriligi	Investitsion faollikning nisbatan pastligi
Arzon ishchi kuchining mavjudligi	Ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifning nomutanosibligi



SWOT-tahlil strategik rejalashtirish usuli bo'lib, tashkilotning ichki va tashqi muhitida mavjud omillarni aniqlashga yo'naltirilgan. Ular to'rtta kategoriya bo'yicha guruhlanadi, ya'ni Strengths (kuchli tomonlari), Weaknesses (kuchsiz tomonlari), Opportunities (imkoniyatlari) va Threats (xavf-xatarlari).

Ishchi kuchidan foydalanish jarayonida kuchli tomonlar bilan bir qatorda zaif jihatlari ham mavjud. Hududlarda boshqaruv va xo'jalik subyektlari rahbarlari ishchi kuchidan foydalanishning kuchsiz tomonlariga jiddiy e'tibor qaratishlari zarur, aks holda kutilgan mehnat unumdorligiga erishish qiyinlashadi. Natijada ishchi kuchi iqtisodiy rivojlanish omili bo'lish o'rniga, uning teskarisiga aylanishi mumkin. Shuningdek, ishchi kuchidan foydalanishda imkoniyatlar bilan birga xatarlar ham mavjud bo'lib, ular o'z vaqtida bartaraf etilmasa, mehnat potentsialiga kuchli salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

O'zbekistonda aholi bandlik darajasi iqtisodiy islohotlar, demografik omillar, ta'lim tizimi hamda global omillar ta'sirida yillar davomida ijobiy o'sib kelmoqda (1-rasm).



1-rasm. O'zbekiston Respublikasi mehnat resurslari soni, mln. kishi².

Yuqoridagi ma'lumotlarga ko'ra, 2010-yildan 2024-yilgacha bo'lgan davrda mehnat resurslarining barqaror o'sish tendensiyasi kuzatilgan. Jumladan, 2010-yilda ushbu ko'rsatkich 16,7 mln. kishini tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 20,1 mln. kishiga yetgan. Mazkur davr mobaynida mamlakatdagi mehnat resurslari soni 3,4 mln. kishiga yoki qariyb 20,4 % ga oshgan.

Ishchi kuchi bozori faqat talab va taklif mexanizmlari orqali boshqarilmaydi, balki uni tashkil etish va boshqarishda davlatning o'рни ham muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat tomonidan tartibga solinadigan ishchi kuchi bozori jarayonlarining asosiy ko'rinishlaridan biri mehnat birjasi bo'lib, u ishchi, xizmatchi va korxona egasi o'rtasida ishchi kuchini sotish va sotib olish bo'yicha kelishuvlarni amalga oshirishda muntazam vositachi vazifasini bajaradi. Mamlakatimizning boshqa viloyatlaridagi kabi Buxoro viloyatida ham mavjud bo'lgan mehnat bozori butun viloyatdagi ijtimoiy ishlab chiqarishga ta'sir ko'rsatib, barcha tuman va shaharlarda har bir tarmoq bo'yicha kadrlarning kasb-malaka tarkibini belgilaydi. Shu bilan birga, ishchi kuchidan viloyat iqtisodiyotining barcha sohalari talablariga mos keladigan umumbashariy va milliy madaniy xislatlar, axloq-odob hamda mehnat jarayoni bilan bog'liq ijobiy fazilatlariga ega bo'lish talab etiladi.

O'zbekistonda iqtisodiyotning uzluksiz o'sib borishi va fan-texnika taraqqiyoti sharoitida ish beruvchilar hamda davlat organlarining aksariyat qismi ishchi kuchi uchun qulay ishlab chiqarish va turmush sharoitlarini yaratish bilan bir qatorda, mehnat bozorida ishtirok etuvchilarning ijtimoiy himoyalanihini ham kafolatlamokda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari O'zbekiston Respublikasida ishchi kuchidan samarali foydalanish masalasi iqtisodiy o'sish, aholi bandligini ta'minlash hamda daromadlar darajasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi. Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, mamlakatda mehnat resurslari sonining barqaror o'sib borishi

2 www.stat.uz rasmiy statistik ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi.



bilan bir qatorda, ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif o'rtasida muayyan nomutanosibliklar mavjud bo'lib, bu holat mehnat unumdorligining yetarli darajada oshmasligiga sabab bo'lmoqda. Ishchi kuchi bozorida davlat tomonidan amalga oshirilayotgan bandlik dasturlari, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash choralari va ta'lim tizimidagi islohotlar ijobiy natijalar berayotgan bo'lsa-da, ularni yanada tizimli va kompleks tarzda amalga oshirish zarur.

SWOT-tahlil natijalari ishchi kuchidan foydalanishda kuchli tomonlar bilan bir qatorda zaif jihatlar ham mavjudligini ko'rsatdi. Xususan, arzon ishchi kuchi va oliy ma'lumotli aholining yuqori ulushi muhim imkoniyat bo'lsa, mehnat unumdorligining pastligi, investitsion faollikning yetarli emasligi hamda yuqori malakali kadrlarning hududlararo va tashqi migratsiyasi muhim muammolar sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bois ishchi kuchidan foydalanishni iqtisodiy rivojlanishning faol omiliga aylantirish uchun mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish va mavjud xatarlarni kamaytirish talab etiladi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Birinchidan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlarini yaratishga qaratilgan rag'batlantiruvchi mexanizmlarni kuchaytirish, ayniqsa, qishloq joylarda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasini kengaytirish zarur. Ikkinchidan, xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, ijtimoiy-maishiy va qurilish xizmatlari turlarini ko'paytirish orqali ishchi kuchi bandligini oshirish imkoniyatlaridan keng foydalanish lozim. Uchinchidan, ta'lim tizimini mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirish, kasbiy tayyorlash va qayta tayyorlash dasturlarini kengaytirish orqali raqobatbardosh kadrlar salohiyatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ishchi kuchidan samarali foydalanishni ta'minlash bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar mehnat bozorining egiluvchanligini oshirishga, bandlik darajasini barqarorlashtirishga hamda mamlakatning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu yo'nalishda olib boriladigan ilmiy asoslangan yondashuvlar va takliflar amaliyotda keng qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdurahmonov Q.X., Shoyusupova N.T., Bakieva I.A. Mehnat iqtisodiyoti: darslik. – T.: TDIU, 2011. – 237 b.
2. Berkinov B.B., Ashurova D.S., Abdullayev M.K. Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlash: o'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2011. – 178 b.
3. Ishmuxamedov A.E., Xaydarov M.T., Muxamedjanova G.Ya., Abdusattarova X.M. Makroiqtisodiy siyosat muammolari: o'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2005. – 147 b.
4. Abduraxmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi: darslik. – T.: Fan va texnologiya, 2012. – 126 b.
5. Abduraxmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: darslik. – T.: Mehnat, 2009. – 227 b.
6. Xaydarov M., Abdullayeva M. Makroiqtisodiy tahlil: o'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2007. – 149 b.
7. Alimov R.X., Boltaeva L.R., Ishnazarov A.I. Ekonometrika–2: o'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2012. – 115 b.
8. Arxipova N.I., Sedova O.L. Menedjment (upravleniye personalom). – M.: Iz-vo "Ippolitova", 2003. – 360 s.
9. Xakimov T.X. Iqtisodiy o'sishning matematik modellari: o'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2013. – 194 b.
10. Xolmo'minov Sh.R., Shoyusupova N.T. Mehnat bozori iqtisodiyoti: o'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2007. – 178 b.
11. Shodiev T.Sh., Xakimov T.X., Boltaeva L.R., Ishnazarov A.I., Nurullayeva Sh., Muminova M.A. Ekonometrika: o'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2007. – 178 b.
12. G'oyibnazarov B.K., Kolonova L. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti. – T., 2007. – 106 b.
13. Hart K. Informal economy opportunities and urban employment in Ghana. Journal of Modern African Studies, 1973, № 11(1), pp. 61–89.
14. G'ulyamov S.S., Begalov B.A. Informatika va axborot texnologiyalari. – T.: Fan, 2010. – 876 b.
15. Inada K. On a Two-Sector Model of Economic Growth: Comments and a Generalization. Review of Economic Studies, 1963, № 30, pp. 119–127.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>